



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026



Google Scholar



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 6-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

ISLOM TA'LIMOTIDA AYOLLARNING ERKINLIK LARI VA IJTIMOIIY MAS'ULIYATLARI

Nizomov Fazliddin Baxodirbek O'G'Li

Universitet of economics and pedagogy

Ijtimoiy- gumanitar fanlar kafedrası assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Islom ta'limotida ayollarning o'rni, erkinliklari va ijtimoiy mas'uliyatlari masalasi tahlil qilinadi. Islomdan avvalgi davrda ayollarga nisbatan mavjud bo'lgan kamsitish va adolatsizliklar yoritilib, Qur'oni Karim va hadislar orqali ayollarning insoniy qadr-qimmati, huquqlari hamda jamiyatdagi mavqei tiklangani asoslab beriladi. Shuningdek, ayollarning ta'lim olish, oilaviy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish huquqlari hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ochib beriladi. Maqolada Islomning ayollarga nisbatan adolat, hurmat va mas'uliyat tamoyillariga asoslangan yondashuvi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Islom ta'limoti, ayol huquqlari, ayollar erkinligi, ijtimoiy mas'uliyat, Qur'oni Karim, hadislar, oila, tarbiya, gender masalalari, inson qadr-qimmati, musulmon ayoli, jamiyat taraqqiyoti.

Turli sabablarga ko'ra, ayollar masalasi Islomga qarshi ta'na toshi otishning asosiy nishonlaridan biriga aylanib qolgan. Hatto ba'zi musulmon ulamolar "Ayollar masalasi Islom ummati ko'ksiga sanchilgan zaharli xanjar", deb aytishga majbur bo'ldilar. Bu masala bo'yicha ko'plab kitoblar, maqolalar yozilgan, xutbalar, mav'izalar qilingan. Albatta, bizning bu masalaga ortiqcha to'xtashga imkonimiz yo'q. Ikkinchidan, Islom, o'z ta'limotlariga xilof qilish oqibatida kelib chiqqan noto'g'ri holatga javob berishga majbur ham emas. Eng muhimi, Islom hech kimning himoyasiga muhtoj ham emas. Faqat, tushuna olmay turgan kishilarga tushunganlar yordam berishi qabilida ish tutish mumkin, xolos. Islomdan oldin ayol kishi nafaqat huquqlari poymol qilinishiga, balki insonlik darajasidan mahrum qilinishiga mahkum qilingan edi. Misol uchun, Islom dastlab paydo bo'lgan yurt va zamonda qiz bola tug'ilgan oila motam tutar va keyinchalik or-nomus va iqtisodiy qiyinchilikka sabab bo'lmasin deb, qizni tiriklayin ko'mib yuborilar edi.

Qur'oni Karim bu odatlarni qattiq qoraladi va man qildi. Musulmon oilalarda qiz tug'lsa, o'g'il tug'ilgandan ko'ra ko'proq xursand bo'lish joriy qilindi. Qizlarni yaxshilab tarbiya qilganlarga, o'g'il bolalarni tarbiya qilganlarga nisbatan ko'p va'dalar qilindi.

Ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda quyidagilar aytiladi:

من كان له ثلاث بنات او اخوات فصبر على لاوعهن و ضراءهن و سراءهن ادبهن الله الجنة بفضل رحمته اياهن فقال رجل او ثنتان يا رسول الله قال او ثنتان فقال رجل او واحدة يا رسول الله قال او واحدة

"Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Kimning uchta qizi yoki singlisi bo'lsayu, u ularning xarxashalariga, og'irliklariyu qiyinliklariga sabr qilsa, Alloh uni ularga ko'rsatgan rahmati tufayli jannatga kiritur", dedilar.

Bir kishi:

-Ikkita bo'lsa-chi ey, Allohning Rasuli - deb so'radi.

-Ikkita bo'lsa ham, dedilar.

Bir kishi:

-Bitta bo'lsachi ey, Allohning Rasuli deb so'radi.

-Bitta bo'lsa ham, dedilar".

Qizlarning tarbiyasi, ta'limi va madaniyati hamda, yashab, o'sishi uchun zarur har bir narsa otaning zimmasidagi farzdir. Ota bu farzdan faqat qiz turmushga chiqqandan keyingina ozod bo'ladi. Chunki, endi bu farz erning zimmasiga o'tgan bo'ladi. Otasi yoki eri yo'q ayolning nafaqasi aka yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa shaxslarga vojib bo'ladi. Umuman, Islomda ayol kishi nafaqasiz qolishi mumkin emas. Qizning nafaqasi otaga, xotinniki erga, singilniki aka-ukaga, onaniki o'g'ilga vojib bo'ladi.

Islom ayol kishiga ta'lim olish va madaniy saviyasini oshirish haqqini berdi va erkaklarni bu ishga mas'ul qiddi. Ilm talabi er-ayolga barobar farzligi, qizlari va singillariga ta'lim va odob bergan kishi jannatga haqli bo'lishini yaxshi bilamiz.

Avvalgi avlod musulmon ayollari erlaridan, boshqa ustozlaridan, Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning ommaviy dars va xutbalaridan olayotgan ilm-ma'rifatga qanoat hosil qilmay Payg'ambar alayhissalomdan ayollar uchun alohida ilm-ma'rifat majlislari qilishni talab qilganlar va ularning bu talablari Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam tomonlaridan darhol qondirilgan. Ayol kishi faqat ta'lim olish, dars, xutba va va'z eshitishgagina haqli emas, balki ta'lim berish, dars aytish va boshqa ilmiy ishlar bilan mashg'ul bo'lish haqqiga ham egadir.

Muslima ayollar ilm, fan va madaniyat soha-sida ulkan yutuqlarga erishganliklari hammaga ma'lum. Gapimiz quruq bo'lmasligi uchun, misol ham keltiraylik. SHifo binti Abdulloh al-Adaviyya roziyallohu anhodan qilingan rivoyatda u kishi quyidagilarni aytdilar:

عن الشفاء بنت عبد الله قالت دجل على رسول الله صلى الله عليه وسلم وأنا عند حفصة فقال لي الاتعلمين هذه رقية النملة كما علمتها الكتابة رواه ابو داود

«Hafsaning oldida o'tirgan edim, Payg'am-bar sollallohu alayhi vasallam kirib qolib menga: «Sen bunga xuddi yozishni o'rgatganingdek, namila damini ham o'rgatmaysanmi?» -dedilar».

Abu Dovud rivoyat qilgan.

Olima ayollar vakilasi Oisha onamiz hadis rivoyat qilish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadilar. Ulkan sahobiyalar o'zlari bilmagan narsalarini, hal qila olmay qolgan masalalarini Oisha onamizdan so'rar edilar. O'sha vaqtning sharoitida bu narsalar dunyo miqyosida katta o'zgarishlar edi.

Muslima ayolning jamiyat, siyosat va shariat maydonlarida ham keragicha o'z ulushi bo'lgan. Muslima ayolning to'g'ri fikrini, haq ovozi za-bardast xalifa ham, Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam ham, Alloh taoloning O'zi ham eshitgan, qabul qilgan Dunyoga Umari Odil nomi bilan mashhur bo'lgan zabardast xalifa

Umar ibn Xattob o'z davrlarida mahr miqdori ortib ketganini mulohaza qildilar. Bu ishni muolaja, qilish, uchun, ko'pchilik, ichida. xutba, qilib, mahrni cheklash maqsadida: «Ogoh bo'linglar, ayollarning mahrida haddan oshmanglar. Agar u bu dunyoda ikrom, Allohning huzurida taqvo bo'ladigan bo'lsa, unga sizning eng haqligingiz Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamdir. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'z ayollaridan birortasiga o'n ikki uvqiyadan ortiq mahr bermaganlar, U zotning qizlarining birortasiga ham bundan ortiq mahr berilmagan», dedilar.

SHunda bir ayol o'rnidan turib: «Ey Umar! Alloh taolo:

«Va u(ayol)lardan biriga qintor — cheksiz mahr bersangiz ham», deydi-yu, sen bizga buni chegaralaysanmi?!» — dedi.

Xutbasi bu shaklda kesilgan xalifa: «Ayol to'g'ri aytdi, Umar xato qildi», deb o'z xatosini hammaning oldida tan oldilar. O'sha jasur ayolning sharofati ila hozirgi kunimizgacha birov ayollarning mahrini chegaralashga jur'at qila olgani yo'q. Bundoq ish ayol kishi mo'tabar bo'lgan jamiyatdagina bo'lishi mumkin. Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam 6-hijriy yilda 1400 sahoba bilan Madiynadan Baytullohning ziyorati uchun borganlarida mushriklar Hudaybiya nomli joyda yo'lni to'sdilar.

O'sha erda sulh tuzilib, musulmonlar Ka'bani ziyorat qilmay qaytib ketadigan bo'ldilar. Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam sahobalariga bu gapni e'lon qilib bo'lib, turinglar, shu erda qurbonliklaringizni so'yib, sochlaringizni oldiringlar, dedilar. Sahobalar norozi bo'lib, birortalari ham qimirlamadilar. Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam amrni uch marta qayta-qayta takrorlasalar ham biror kishi qimir etib qo'ymadi.

U zot g'oyat mahzun bo'lib, chodirga, jufti halollari Ummu Salama roziyallohu anhonig yonlariga kirdilar. Bo'lgan voqe'ani u kishiga aytib, o'tgan ummatlar ham shundoq ishlar tufayli halok bo'lganligi, shuning uchun g'oyat tashvishda ekanliklarini qo'shimcha qildilar.

Shunda Ummu Salama roziyallohu anho Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamga har qanday dono vazir ham bera olmaydigan maslahatni berdilar:

«Ey, Allohning payg'ambari, aytgan amringiz bo'lishini xohlaysizmi? Tashqariga chiqing. Ulardan birortasiga bir kalima ham so'z aytmay qurbonlik tuyalaringizni so'ying. So'ng sartaroshingizni chaqiring, sochingizni olsin», dedilar. Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam chiqib, xuddi Ummu Salama roziyallohu anho aytganlaridek qildilar. Buni ko'rgan sahobai kiromlar ham shoshib qurbonliklarini so'yib, sochlarini oldira boshladilar.

Shundoq qilib bir muslima ayolning tadbiri ila Islom ummati halokatdan qutulib qoldi. Allohning payg'ambariga to'g'ri maslahat bera oladigan ayol faqatgina Islom ummatidan chiqishi mumkin.

Endi muslima ayolning nidosini Alloh eshitib, fikrini tasdiqlaganini o'rganib chiqaylik. Islomdan oldin arablarda «zihor» degan narsa bor edi. Bunda er

xotiniga, sen menga onamning belidek haromsan, desa, abadiy yarashib bo'lmaydigan taloq tushar edi. Xotin er uchun uning onasidek hisoblanib qolar edi.

Kunlarning birida Xavla binti Sa'laba ismli ayolni uning eri Avs ibn Somit zihor qildi. So'ngra, Avs achchig'idan tushgach, nadomat qildi va xotiniga, endi sen menga harom bo'lgan bo'lsang kerak, dedi. Xavla bo'lsa, Allohga qasamki, bu taloq emas, dedi-da, qo'shni ayolning kiyimini qarzga olib, bu masala hukmini oydinlashtirish uchun Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga yo'l oldi. U zotning oldilariga kelib:

— Ey, Allohning Rasuli, erim Avs ibn Somit yosh, boy va aqlu hushlik paytimda menga uylandi. Molimni eb bitirdi, yoshligimni barbod qildi, aqlimni suslatdi va yoshim ulug' bo'lgan bir damda mendan zihor qildi. Endi o'zi bu zihordan afsus-nadomatda. Bizlarning yana qayta qo'shilishimizga biror yo'l bormi?—dedi.

—Unga harom bo'libsan, — dedilar Payg'ambar alayhissalom.

Sizga Qur'onni tushirgan Zot bilan qasamki, u taloqni zikr qilgani yo'q. U mening bolamning otasi, eng sevimli kishim-ku, axir?!—dedi Xavla.

—Unga harom bo'libsan. — dedilar Payg'ambar alayhissalom.

—Mushkulimni va yolg'izligimni Allohning O'ziga shikoyat qilaman, men erim bilan uzoq hayot kechirdim, undan farzandlar ko'rdim,—dedi Xavla.

—Unga harom bo'libsan, — dedilar Rasululloh sollallohu alayhi vasallam va «Sening to'g'ringda biror amr kelgani yo'q», deb qo'shib qo'ydilar.

Xavla binti Sa'laba roziyallohu anho bo'lsa tinmay Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan tortishaverdi.

Qachon U zot alayhissalom, «Sen unga harom bo'libsan», desalar, Xavla, «Mushkulimni, yolg'izligimni va holimning og'irligini Allohning O'ziga shikoyat qilaman», der edi.

Ushbu tortishuv chog'ida Xavla binti Sa'laba:

—Axir, mening yosh bolalarim bor, men bilan bo'lsalar, och qoladilar, u bilan bo'lsalar, zoe' bo'ladilar, der va boshini osmonga ko'tarib:

—Ey bor Xudoyo! O'zingga yolvoraman. Ey bor Xudoyo! Payg'ambarning tiliga mening mushkulimni oson qiluvchi narsani tushir», der edi.

Birdan Payg'ambar alayhissalom jim bo'lib qoldilar. Vahiy tushganda bo'ladigan holat yuzaga keldi. Bir muddatdan keyin u kishi muborak boshlarini ko'tardilar-da:

«Alloh taolo sen va sening ering haqida oyat tushirdi», dedilar va, quyidagicha boshlanadigan oyatlarni tilovat qildilar:

"قد سمع الله قول التي تجدلك في زوجها وتشتكي الى الله و الله يسمع تحاوركما انسمع بصير"¹ الله

¹Mujodala surasi 1-oyat

Albatta, Alloh sen bilan o`z eri haqida tortishayotgan va Allohga shikoyat qilayotgan (ayol)ning so`zini eshitdi. Vaxolangki, Alloh ikkovingizning gaplashuvlaringizni eshitmoqda. Albatta, Alloh eshituvchi va ko`ruvchi zotdir» («Mujodala» surasi, 1-oyat).

Bu oyatlarda johiliyatning zihor hukmi botil qilingan, zihor qilgan er kafforot berib xotini bilan yarashsa mumkinligi bayon qilingan edi. Mana, o`n to`rt asrki, o`sha oyatlar Qur`on sifatida o`qilmoqda, ularga shariat —qonun sifa-tida amal qilinmoqda. Qiyomatgacha shundoq bo`lishi shubhasiz. Oddiy bir ayolning nidosi Alloh taologa etib borishi, uning fikriga, talabiga mos Qur`on oyatlari tushishi ayol zotining hurmati, e`tibori emasmi?! Qaysi tuzumda, qaysi dasturda shunga o`xshash narsa bor. Zar qadrini zargar biladi, deganlaridek Xavla binti Sa`laba roziyallohu anhoning qadrini ham hamasrlari yaxshi bilganlar.

Umar ibn Xattob roziyallohu anhu o`z xalifalik davrlarida bir guruh kishilar bilan ketayotgan ekanlar, bir ayol u kishini uzoq to`xtatib qolibdi. Va`z, nasihat qilibdi.

«Ey Umar,—debdi ayol, — yaqindagina Umarcha, deb atalarding, ulg`ayganingdan so`ng, ey Umar, deb ataladigan bo`lding. Endi esa, ey, amiral mo`minin, deb atalmoqdasan. Allohdan qo`rqin! Ey Umar! Kim o`limga ishonsa, umrini bekorga o`tkazishdan qo`rqadi, kim hisob-kitobga ishonsa, azobdan qo`rqadi, deb yana so`zini davom ettiraveribdi ayol.

Hazrati Umar bo`lsalar, jim quloq solib turaveribdilar. Atrofidagilar u kishiga: «Ey,mo`minlarning amiri! Bir kampirga ham shunchalik to`xtab turasizmi?»-deyishganda, hazrati Umar ularga javoban: «Allohga qasamki, u kunning avvalidan oxirigacha ushlab tursa ham, farz namoz vaqtidan boshqa vaqtda turaveraman. Bu kampirning kimligini bilasizlarmi o`zi? Bu Xavla binti Sa`laba. Uning so`zini Alloh taolo etti osmonning ustidan eshitgan. Olamlarning Robbisi uning so`zini eshitadi-yu, Umar eshitmasmidi?!» — deganlar.

Ha, o`z so`zini Alloh taolo etti osmonning ustidan turib eshitadigan, fikrini qabul qilib, istagini shariat qilib qiyomatgacha yuritib qo`yadigan ayollarni faqat Islomgina yetishtira oladi. Olamga dong`i ketgan, har qanday botir ham nomini eshitganda titroqqa tushadigan zabardast xalifani ko`chada to`xtatib olib xohlaganicha nasihat qila oladigan ayolni ham faqat Islom yetishtiradi, xolos.

Islom ayollarning hurmat-ehtiromini o`rniga qo`yib, ularning ayollik latofatlarini saqlab qolishlari uchun, ayollik vazifalarini to`liq ado etish orqali o`z jamiyatlariga, vatanlariga, dinlariga kerakli xizmatni ado etishlari uchun barcha sharoitni yaratib bergan.

Islom erkaklarga mos bo`lgan og`ir ishlarni ayollarga farz qilmagan, lekin ayollarga xos ba`zi ishlarni erkaklarga xos ishlar ila tenglashtirib, ularning erkaklar bilan teng ajr olishlarini joriy qilgan. Misol uchun, ayollarning tug`ishdagi qiynoqlarini erkaklarning dushmanga qarshi jihodlariga tenglashtirilgan. Bu

ma'nolar o'z haq-huquqini talab qilib chiqqan musulima ayollar sharofati ila Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam tomonlaridan bayon qilingan.

Imom Buxoriy va imom Muslimlar rivoyat qilgan hadisda shunday deyiladi: «Asma' binti Zayd al-Ansoriyya roziyallohu anho Payg'ambar sollal-lohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib: «Ey, Allohning Rasuli, men ortimdagi musulima ayollar jamoasining elchisiman. Ular mening so'zimni aytadilar va mening fikrimga o'xshash fikrdalar: Albatta, Alloh sizni erkak va ayollarga yuborgan. Biz sizga iymon keltirdik va ergashdik. Biz —ayollar jamoasi, tutilib, o'ralib, uyda o'tirib qolganmiz. Erkaklarning shahvat mavze'si, bolalaringizning ko'taruvchilarimiz. Erkaklar jamoat va janozaga hozir bo'lish ila afzal qilindilar. Qachon ular jihodga chiqsalar, ularning mollari muhofaza qilamiz, bolalarini tarbiya qilamiz, ularga ajrda sherik bo'lamizmi?!» — dedi.

Shunda Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam muborak yuzlarini o'z sahobalariga o'g'irib qaradilar-da:

- O'z dini haqida ushbu ayoldan ko'ra yaxshiroq savol bergan ayolning gapini eshitganmisizlar? — dedilar.
- Yo'q, ey Allohning Rasuli, — deyishdi ular.
- Ey Asma', qaytib borib, ortingdagi ayollarga bildirki, albatta, sizning biringizning yaxshi er tutishi, uning roziligini istashi, muvofiq bo'lganiga ergashishi sen zikr qilgan narsalarga teng keladi, — dedilar.

Asma' o'ziga Rasululloh sallohu alayhi vasallam aytgan narsalardan sevinganidan «Laa ilaha illallohu»ni aytib qaytib ketdi».

Islomiy nuqtai nazardan bola tarbiyasi, kelajak avlodni ko'ngildagidek qilib yetishtirish, oila mustahkamligi ayollarning ko'chaga chiqib o'ziga mos bo'lmagan ishlarni qilib, to'rt-besh tanga pul topganidan, askarlik qilganidan yoki asfal't yotqizganidan afzal hisoblanadi.

Islomdan oldin ayol kishi merosdan mutlaqo mahrum qilinar, eri o'lganda esa ayolni meros tariqasida erning qarindoshlaridan biri olar edi. Keyin, xohlasa, o'zi xotin qilar, xohlasa, boshqaga erga berib, mahrini o'zi olar edi. Islom bu zolim hukmlarni botil etib, ayol kishining ham merosdan nasibasi borligini e'lon qildi.

Alloh taolo «Niso» surasida:

للرجال نصيب مما ترك الوالدان والأقربون وللنساء نصيب مما ترك الوالدان والأقربون مما قل منه أو كثر نصيباً مفروضاً²

«Ota-onalar va qarindoshlar qoldirgan narsada erkaklarning nasibasi bor. Ota-onalar va qarindoshlar qoldirgan narsada ayollarning nasibasi bor. U oz bo'lsin, ko'p bo'lsin - farz qilingan nasibadir», degan (7-oyat).

Islomda davlat rahbarini saylash, unga itoatni e'lon qilishni «bay'at» deyiladi. Bu eng muhim siyosiy haq ekanligi hammaga ma'lum. Qur'oni Karimda erkaklar bilan bir qatorda ayollarga ham bay'at qilish huquqi berilgan.

²Niso surasi 7 oyat

Alloh taolo «Mumtahana» surasida: لا يَأْتِيهَا النَّبِيُّ إِذَا جَاءَكَ الْمُؤْمِنَاتُ يَبَايِعُكَ عَلَى أَنْ لَا يَشْرُكْنَ بِاللَّهِ سَيْنًا وَلَا يَسْرِقْنَ وَلَا يَزْنِينَ وَلَا يَقْتُلْنَ أَوْلَادَهُنَّ وَلَا يَأْتِينَ بِبَهْتِنٍ يَفْتَرِيْنَهُ بَيْنَ أَيْدِيْهِنَّ وَارْجُلَيْهِنَّ وَلَا يَعْصِيْنَكَ فِيْ مَعْرُوفٍ فَبَايِعْهُنَّ وَاسْتَغْفِرْ لَهُنَّ اللَّهُ إِنَّ اللَّهَ غَفُورٌ رَّحِيمٌ³

«Ey Payg`ambar, agar mo`minalar senga Allohga hech narsani shirk keltirmaslik, o`g`rilik qilmaslik, zino qilmaslik, bolalarini o`ldirmaslik, qo`llari va oyoqlari orasidan bo`hton to`qib keltirmaslik va senga yaxshilik ishda isyon qilmaslikka bay`at qilib kelsalar, bas, ularning bay`atini qabul qil. Va Allohdan ularni mag`firat qilishini so`ra. Albatta, Alloh mag`firat qiluvchi va rahimlidir», degan (12-oyat).

Endi, ayol kishining ishlashi haqida ikki og`iz gaplashaylik. Avvalo, erkak bo`lsin, ayol bo`lsin, nima uchun ishlaydi, degan savolni beraylik. Albatta, tirikchilik qilish uchun, yaxshi maishat o`tkazish uchun, degan javobni olamiz. Undoq bo`lsa, tirikchiligi o`tib turgan, maishati yetarli bo`lib turgan ayol kishining bolalarini, oilasini tashlab qo`yib, ko`chaga chiqib o`ziga mos bo`lmagan ishni qilishiga nima hojat bor? Ba`zilar «Ayol kishi o`z mehnati ila jamiyati taraqqiyotiga hissa qo`shishi kerak emasmi», deyishi mumkin. Ularga «Ertayu-kech dalada ezilib mehnat qilgan, paxta terib zaharlangan, bolasini emizadigan sutidan zahar chiqadigan ayol jamiyat uchun foydalimi yoki mazkur og`ir ishlarni eriga qo`yib jamiyat uchun kerakli farzandlarni yaxshilab tarbiyalab o`stirgan, oilasini mustahkam qilgan ayol jamiyat uchun foydalimi?» degan qarshi savol beriladi.

Shu bilan birga, Islomda jamiyatga zarur bo`lib qolganda, erkaklar uddasidan chiqa olmay qolganlaridagina ayollarni ham ishga taklif qilish, hatto urushda qatnashtirish ham borligi eslatib o`tiladi.

Islomda ayollarni tug`ilganlaridan umrlarining oxirigacha kerakli maishat bilan ta`minlash erkaklar zimmasiga yuklatilgani, shuningdek, jamiyat uchun kerakli og`ir ishlarni bajarish ham erkaklarga yuklatilgani uchun, ayollarni hurmatlab, ularga ishlash mas`uliyati yuklatilmagan.

Bundan keyin ayollarning zaruratsiz ishlashlarining yana bir sababi qoladi. U ham bo`lsa, ish bahonasi bilan oila doirasida qila olmay yurgan harom-harish ishlarini qilish yoki oddiy ko`ngil xushi uchun bo`ladi. Islomda harom-harish ishlar mutlaqo harom qilingani hammaga ma`lum. Ko`ngil xushini esa ishlab turib qilgandan ishlamay qilganlari ayollarning o`zi uchun yaxshi bo`lsa kerak.

Yana bir bor ta`kidlash lozimki, Islomda ayol kishining ishlashi man qilinmagan, balki bu masala ayol kishining, uning oilasining, jamiyatining manfaatlaridan kelib chiqib tartibga solingan.

Yosh bolalarning tarbiya va ta`lim ishlari ayollarning ishi hisoblanadi. Xotin-qizlarga tibbiy xizmatlar ko`rsatish ayollarning ishi hisoblanadi.

³Mumtahana surasi 12 oyat

Mutaqaddim Hanafiy faqihlardan Kamoliddin ibn al-Humam: «Agar ayolning xotinlarga xos farzi kifoya ishda hunari bo'lsa, uning eri (ishga) chiqishidan man qila olmaydi», deganlar.

Shuningdek, ayol kishi erining ishida yordamchi bo'lishi, oilasi muhtoj bo'lganda halol yo'l bilan, halol mehnat qilishi joiz. Ya'ni, o'zi xohlasa, ishlaydi, bo'lmasa, birov uni majbur qila olmaydi. Ba'zi ulamolarimiz: nodir qobiliyatga ega bo'lib, jamiyatga foydasi ko'p bo'lgan ayollar ham ishlashlari tavsiya qilinadi, deganlar.

Qolgan paytlarda ayol kishini ishlashga majbur qilish yo'q. Uni turli yo'llar bilan tashviqot qilib, arzon ish kuchi sifatida ezishga ham hech kimning haqqi yo'q. Ayol-qizlarni tong saharda dalaga haydab ketib, xohlaganicha ishlatib, tun qorong'usida qaytarib olib kelishga ham hech kimning haqqi yo'q. Ayollarni o'zlariga mos bo'lmagan ishlarda ishlatib ularning ayollik latofati va onalik qobiliyatiga futur etkazishga ham hech kimning haqqi yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **“QUR’ONI KARIM”** ma’nolarining tarjima va tafsiri. Abdulaziz Mansur. “Toshkent islom universiteti”. Toshkent 2004.
2. **“TAFSIRI HILOL”**. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. “SHARQ” nashriyoti. Toshkent-2008.
3. **“IYMON”**. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. “SHARQ” nashriyoti. Toshkent-2006.
4. **“HADIS VA HAYOT”**, 25 – juz .”Nubuvvat xonadoni xonimlari” Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. “SHARQ” nashriyoti. Toshkent-2007.
5. **“POKLIK IMONDANDIR”**. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Toshkent. “O'zbekiston” nashriyoti. 1991.
6. **“JUMA MAV’IZALARI”**. Toshkent – 2007.
7. **“MISHKOTUL MASOBEH”**. Imomi Tabriziy. Bayrut shahri.
8. **“ISLOMIY OILA FAROG’AT QASRI”**. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf.
9. **“NURUL YAQIN”**. Shayx Muhammad Xuzariy. “Movarounnahr” nashriyoti. 1992
10. Muhammad Ali as – Sobuniy **“Muxtasar – tafsiri Ibn Kasir”** Bayrut nashriyoti 1998 yil.
11. **“Din – nasihatdir”**, Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Toshkent Sharq nashriyoti, 2003 yil